

**Sultonova Tursunoy Kamoliddin qizi
FarDu 2-bosqich 22.88-guruh talabasi**

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI XALQ OG‘ZAKI IJODI TALQINIDA

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada buyuk, mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bilan xalq og‘zaki poetik ijodidagi shu mazmundagi dostonlar haqidagi ilmiy qarashlar, ular to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar tahlil etiladi. Shu bilan birga Xusrav va Shirin haqidagi hikoyaning ilk bor yozma adabiyotga olib kirilishi haqida ham mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Obraz, doston, Farhod, Shirin, folklor, “Xamsa”, tasvir, badiiy ifoda.

KIRISH

Inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, e兹gulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

(O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov.)

Hazrat Alisher Navoiy — so‘z mulkining sultoni, nafaqat sharq adabiyotini, balki g‘arb adabiyotini ham lol qoldirgan mukammal asarlar ijodkori. “Turkiy xalqlarning “shams-ul millat”i bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she’riyati, buyuk “Xamsa”si, fan sohalarining turli tarmoqlariga bag‘ishlangan boy ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir”.[1.5.]

Alisher Navoiy asarlari Sharq mumtoz adabiyotida alohida ahamiyatga ega. Uning asarlarida kim nimani izlasa, o‘shani topa oladi. O‘z davri va hozirgi zamonda ham o‘zining didaktik ahamiyati va qimmatini yo‘qotmagan.

O‘zbek xalqining eng qadimgi davrdan shu kunga qadar yetib kelgan madaniy meroslaridan biri xalq og‘zaki badiiy ijodidir. Xalq og‘zaki ijodi asarlarida xalq fantaziyasiga keng o‘rin berilib, unda badiiy uydirmalar, qahramonlarni ideallashtirish, turli-tuman sehrli mo‘jizalar tasvirida umumbashariy fikrlar, do‘stlik, vatanparvarlik, xalq ozodligi, yurt obodonchiligi, mehnat tajribalari, sevgi va muhabbat, dushmanga, zolimga nafrat aks ettiriladi. Xalq og‘zaki ijodi xalqlarning asrlar davomida yaratgan, avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan ma’naviy merosi hisoblanadi.

Hazrat Alisher Navoiydan bizga diniy va dunyoviy mavzularni qamrab olgan, nazm va nasr durdonalari bo‘lmish buyuk ma’naviy xazina meros bo‘lib qolgan. Navoiy – mukammal asarlar yaratgan buyuk qalam sohibi. Navoiy asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalariga yaqinlik sezilib turadi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini xalqimizning urf-odat va orzu-umidlari, donishmandligi, ijodiy yetukligini o‘zida mujassam etgan. Og‘zaki ijod namunalariga umuminsoniy qadriyatlar, milliy ruh singdirilgan bo‘ladi. Shuning uchun ham Navoiy asarlarini xalq qalbiga juda yaqindir. Ayniqsa, hazrat Alisher Navoiyning shoh asari bo‘lmish “Xamsa”si tarkibidagi besh dostonda ham xalq og‘zaki ijodida o‘z variantlariga ega afsona va rivoyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ijodkorimiz sharq xalqlari og‘zaki adabiyotida mavjud bo‘lgan “Xusrav va Shirin” dostonini qayta ishlab, ilk marta turkiy tilda “Farhod va Shirin” dostonini yaratdi.

“Farhod va Shirin” dostonining yozma adabiyotdagi namunalaridan tashqari xalq orasida yana turli variantlari, ya’ni ertak, afsona, rivoyat va doston kabi namunalari mavjud. Bundan tashqari doston qahramonlari Farhod va Shirin timsollari ham baxshilarning qo’shiq va termalaridan keng o’rin olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og‘zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. “Ularda tarixiy hayotda ro‘y bermagan bo‘lsa-da, ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi. Shuning uchun olimlar afsonalarning ayrimlarini ertaklarga tenglashtirganlar”.[3.49.]

Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi ikkinchi doston “Farhod va Shirin” deb atalib, 1484-yilda yozib tugallangan. Navoiygacha bu mavzu “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Alisher Navoiy bu mavzulardagi doston uchun avvalgi dostonlarda ikkinchi darajali timsol tarzida talqin qilingan Farhodni bosh qahramon qilib oladi. Farhodning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarbayjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Ardabiliyning “Farhodnoma” nomli fors-tojik tilida yozilgan dostoni bilan boshlanadi. Lekin undagi tasvirlangan voqealar va mazmun butunlay boshqa-boshqa dostonlar ekanligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni eroniylar og‘zaki ijodida mayjud bo‘lgan doston bo‘lib, syujeti va kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi, lekin g‘oya va mazmun jihatdan bir-biriga qisman yaqin hisoblanadi. “Farhod va Shirin” dostonining eng qadimgi variantlaridan biri XII-XIII arslarda markaziy Qoraqumda bino bo‘lgan Devqal’ a bilan bog‘liqdir”.[2.458.]

Mashhur xalq shoiri Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li bevosita Navoiy dostoni asosida “Farhod va Shirin”ning folklor variantini yaratadi. Bu variantda asar qahramonlari halok bo‘lmaydi, balki ular baxtli hayot kechirib murod-maqsadlariga yetishishadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Farhod va Shirin” dostoning ertak janridagi varianti ham mavjud bo‘lib unda quyidagicha hikoya qilinadi:

Farhod bir kambag‘alning o‘g‘li ekan. Otasi o‘lib unga bir ketmon va bir sandiq meros bo‘lib qolibdi. Farhod sandiqni ochib qarasa, unda bir ko‘zgu bor ekan. Ko‘zguga qarab bir go‘zal qizni ko‘ribdi va bexush bo‘lib yiqilibdi. O‘rtog‘i Shopur kelib uni o‘ziga keltiribdi. Farhod bilan Shopur bu go‘zal qizni izlab yo‘lga tushishibdi. Ular juda ko‘p yurib, yo‘l yursa ham, mo‘l yurib oxiri Bekobod degan joyga kelishibdi. Bekobod vayrona misol juda xarob bir joy ekan. U yerning aholisi ming mashaqqatda Sirdaryo suvini cho‘lga oqizish uchun ariq qazishayotgan ekan. Buni ko‘rgan Farhod otasidan qolgan ketmon bilan ariq qazishga tushib ketibdi va mo‘jizalar ko‘rsatibdi. Farhodning ovozasi Bekobod yurtining hukmdori Gulchehra va uning go‘zal jiyani Shirinaga yetib boribdi. Ular qahramonlik ko‘rsatgan Farhod sharafiga ziyofat beribdilar. Farhod ko‘zguda ko‘rgan go‘zal qizni ko‘ribdi.

Shirinining go‘zalligi husn-u jamoli ta’rifini eshitgan Eron shohi malikaga sovchi yuboribdi. Gulchehra Shirin hali yosh deb Xusravga rad javobini beribdi. Bundan g‘azablangan Xusrav Bekobodga qo‘sish tortibdi, biroq Farhodning tog‘dan qulatgan toshlari Xusravning qo‘sishlarini to‘zg‘itib yuborib, ularga katta shikast yetkazibdi. Shunda Xusrav vazirining maslahati bilan hiyla yo‘liga o‘tibdi. Mirzacho‘lga kim suv chiqarsa, Shirin unga tegsin, debdi. Farhod ishga tushib ketibdi. Xusrav esa Mirzacho‘lga bo‘yra yoydiribdi. Bo‘yralar quyoshda tovlanib, suvdek mavj beribdi. Buni ko‘rgan Shirin noilojlikdan Xusravning taklifiga ko‘nidbi. Lekin tong otganda

Xusrav hiyla ishlatganini bilibdi. Shirin ko‘z yosh to‘kib Farhod tomon yo‘l olibdi. Farhod ham bo‘lgan voqealarni eshitib Shirin huzuriga jo‘nabdi. O‘rtadan Sirdaryo oqib o‘tayotgan ekan, Shirin daryoning u tomonida Farhod esa bu tomonida ekan. Oshiq-mashuq daryoning ikki chetida turib qolishibdi. Farhod yori tomon qo‘l cho‘zib tog‘ga aylanibdi. Shirin esa ko‘z yosh to‘kaverib soyga aylanibdi. Shundan buyon o‘sha tog‘ni “Farhodtug”, soyni esa “Shirinsoy” deb atashar ekan.

Boshqa o‘zbek xalq afsona va ertaklarining mazmuni ham shu variantga o‘xshaydi, biroq ularning xotimasida Xusravning hiylasini eshitgan Farhod o‘zini halok etadi. Farhodning o‘limiga chiday olmagan Shirin ham o‘zini o‘ldiradi.

“Farhod va Shirin” haqida xalq orasida yurgan hikoyalardan navbatdagisi Boysun tog‘lari atrofida paydo bo‘lgan. Bu hikoya G‘ulom Zafariy tomonidan yozib olingan. Fitratning ko‘rsatishicha, hikoyadagi Farhod cho‘pon yigit bo‘lgan (Firdavsiyda Shirin cho‘pon qizi deb beriladi. – M.) U xo‘jalardan, ya’ni aslzodalardan birining Shirin ismli qiziga oshiq bo‘lgan, qiz ham Farhodni sevgan. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan dostonlardan bu hikoyaning farqli jihatni Farhod Xusrav tomonidan emas, balki Shirinning qarindoshlari bo‘lmish Boysun xo‘jalari tomonidan Boysundagi “Ketmon chopdi” tog‘ini qazish jarayonida hiyla bilan o‘ldiriladi”.[5]

Ko‘rinib turibdiki, “Farhod va Shirin” dostoni yozma adabiyotda ham, xalq og‘zaki adabiyotida ham ma’lum va mashhurdir. Ayniqsa, ushbu dostonning xalq og‘zaki ijodidagi namunalari aholi orasida shu qadar keng yoyilganki, hattoki ayrim hududlar doston qahramonlarining nomlari bilan bog‘liq. Xususan, Bekobod tumanida “Shirinsoy”, “Farhodtug”, “Xusrav qudug‘I”, Boysun tumanida “Bibishirin” qishlog‘i va bundan tashqari Sherobod tumanida “Shirin” dahmasi yaqqol misol bo‘ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibidagi ikkinchi doston – “Farhod va Shirin” dostoni va uning xalq og‘zaki ijodida yaratilgan namunalari haqida bir qancha ma’lumotlar berishga harakat qilindi. Farhod va Shirin bilan bog‘liq ertak-u dostonlar, rivoyat va afsonalar Navoiydan avval ham, Navoiydan keyin ham yaratilgan ayrim namunalarni ko‘rishimiz mumkin, biroq Navoiyning “Farhod va Shirin”i yetuk va mukammal asardir. Biz Navoiyning qaysi afsona va rivoyatlardan xalq ertaklaridan foydalanganini bilmaymiz. Lekin shunisi aniqki, Navoiy yaratgan asarlar xalq og‘zaki ijodiga samarali ta’sir etdi. “Alisher Navoiy xamsanavislikda o‘zigacha mavjud an‘analardan ijodiy foydalangan holda o‘z dostoniga yangicha ruh bag‘ishlaydi, o‘z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, “afsonaga yangi libos kiygizadi” .[1.118] Shubhasiz, bir qancha xalq og‘zaki adabiyoti namunalari Alisher Navoiy dostonlari asosida yaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Sh.Sirojiddinov[vaboshq],Navoiyshunoslik.—Тошкент,«TAMADDUN», 2018. — 520 b.
- 2.N.Mallayev, O‘zbek adabiyoti tarixi.—Toshkent, "O‘QITUVCHI", 1965. —650b.
- 3.Madayev Omonilla, Xalq og‘zaki poetik ijodi: darslik / — T.: «Sharq», 2010. — 208 b
- 4.Alisher Navoiy, " Farhod va Shirin " nasriy bayoni. -Toshkent:" Akademnashr", 2015